ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245, SJIF – 5,431

TIFT "Raqamli texnologiyalar" kafedra mudiri I.f.f.d (PhD) M.Maxammadiyev taqrizi ostida

Mehroj Muxammadiyev
TIFT, raqamli texnologiyalari kafedrasi assisenti
Aloqa uchun: +998335939351
E mail: mehroj_5467@mail.ru

RAQAMLI IQTISODIYOT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SHAROITIDA SOLIQLAR VA BOSHQA MAJBURIY TO`LOVLARNI AMALGA OSHIRISH JARAYONLARI

Annotasiya: Mazkur maqolada soliq tizimida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish orqali soliq bilan bog'liq barcha xizmatlarni osonlashtirish, ya'ni soliq organlari xodimlari va soliq to'lovchilarning imkoniyatlari kengaytirish, soliq tizimidagi ko'plab ishlarni raqamli texnologiyalari orqali bajarish bo'yicha taklif va amaliy tavsiyalar va ularni samaradorligini baholash yo'llari bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, tadqiqot doirasida xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: soliq tizimi, raqamli texnologiyalari, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq, samaradorlik, raqamli platforma, raqamli transformatsiya, soliq organlari, optimallashtirish, veb-xizmatlar, zamonaviy raqamli texnologiyalar, elektron soliq xizmatlari, electron to'lovlar, electron xizmatlar, ma'lumotlar bazasi, integratsiya, soliq to'lovchilar.

ПРОЦЕССЫ ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ НАЛОГОВ И ДРУГИХ ОБЯЗАТЕЛЬНЫХ ПЛАТЕЖЕЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация: В данной статье приведены предложения и практические рекомендации по облегчению всех связанных с налогообложением услуг за счет эффективного использования цифровых технологий в налоговой системе, то есть расширения возможностей сотрудников налоговых органов и налогоплательщиков, по выполнению многих работ в налоговой системе с помощью цифровых технологий, а также по способам оценки их эффективности, в рамках исследования сформулированы выводы и предложения.

Ключевые слова: налоговая система, цифровые технологии, налоговая отчетность, налоговые поступления, налогообложение, эффективность, цифровая платформа, цифровая трансформация, налоговые органы, оптимизация, веб-сервисы, современные цифровые технологии, электронные налоговые услуги, электронные платежи, электронные услуги, база данных, интеграция, налогоплательщики.

PROCESSES FOR THE IMPLEMENTATION OF TAXES AND OTHER MANDATORY PAYMENTS IN THE CONDITIONS OF THE DIGITAL ECONOMY AND DIGITAL TECHNOLOGIES

Annotation: in this article, research has been carried out to facilitate all tax-related services through the effective use of digital technologies in the tax system, that is, to expand the

capabilities of tax authorities and taxpayers, to carry out many works in the tax system through digital technologies, and to evaluate their effectiveness, conclusions and proposals are formed within the framework of the study.

Keywords: tax system, digital technology, Tax Report, tax revenue, tax, efficiency, digital platform, digital transformation, tax authorities, optimization, Web Services, modern digital technology, electronic tax services, electron payments, electron services, database, integration, taxpayers.

Kirish

So'ngi vaqtlarda "Raqamli iqtisodiyot" tushunchasi juda ko'p marta qo'llanilmoqda. Darhaqiqat, ko'plab rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyot ularning rivojlanish omillariga sezilarli darajada ta'sir o'tkazgan.

Raqamli iqtisodiyot - bu xo'jalik faoliyatini yuritish bo'lib, bunda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko'rinshidagi ma'lumotlar bo'lib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va shu qayta ishlash natijasini analiz qilish yordamida har xil turdagi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, texnologiyalar, qurilmalar, saqlash, mahsulotlarni yetkazib berishda oldingi tizimdan samaraliroq yechimlar tadbiq qilishdir. Boshqacha qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmatlar ko'rsatish, elektron to'lovlar amalga oshirish, internet savdo, va boshqa turdagi sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog'langan faoliyatdir.

Soliq tizimida raqamli texnologiyalardan unumli foydanalish birinchi navbatda davlat soliq xizmati organlari xodimlari tashkil qilinib, amalda qo’llaniladi. Davlat soliq siyosatini amalga oshirishda asosiy mavqeni egallagan soliq organlariga soliq qonunlariga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirishdek yuksak vazifa yuklatildi. O’tgan davr oralig’ida soliq organlari davlat budjetining daromad qismini uzluksiz to’ldirishni ta’minlaydigan muntazam tizimga aylandi.

Adabıyotlar sharhi

Xorijlik olimlar ham o‘z ilmiy izlanishlarida soliq tizimi faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish masalalarini o‘rganish, shuningdek, global iqtisodiy tizimning raqamli transformatsiyasi sharoitida, ilg‘or axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan innovatsion uslubiy yechimlar va texnologik mexanizmlarni ishlab chiqishga bir necha bor uringanlar.

Mahalliy olimlarimiz: Gulyamov, Alimov, Xayitmatov, Begalov, Shermuxamedov, Turaev, Jo'rayev, Abdullayev, Kobilov, Abdulaxtov, Rajabov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari milliy iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlari va sohalarida, jumladan soliq tizmida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish usullarini ishlab chiqishga bag‘ishlangan. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish, iqtisodiyotda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish sharoitida, O‘zbekiston Respublikasining soliq to‘lovchi faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish usullarini takomillashtirish masalalari

munozarali bo‘lib qolmoqda. Muammoning dolzarbligi va yetarli darajada rivojlanmaganligi ushbu muammo bo‘yicha tadqiqot olib borishni va ushbu maqolaning mavzusini aniqlashga imkon berdi.

Tadqıqot metodologıyası

Hozirgi kunda iqtisodiyotning barcha sohalarida raqamli texnologiya, sun’iy intellekt texnologiyalari va Big datadan samarali foydalanishga bo’lgan talab va ehtiyojlardan kelib chiqib, mavjud muammoni hal qilishda, Davlat soliq qo‘mitasi faoliyatida raqamli texnologiyalaridan foydalanish usullarini takomillashtirish yo‘nalishlarini ishlab chiqishda, qiyosiy, tizimli, iqtisodiy va statistik, SWOT tahlili, monografik tadqiqot usullari, anketa so‘rovi, guruhlash, taqqoslash, induksiya, deduksiya, optimallashtirish usuli shuningdek, WEB-portallar, kompyuter tarmoqlari va maxsus dasturiy ta’minot vositalari bilan ishlash usullaridan foydalanildi.

Tahlıl va natıjalar muhokaması

Soliq tizimida raqamli texnologiyalarining vazifasi soliq xizmati organlari oldiga qo‘yilgan masalalarni hal etish uchun to‘langan soliqlar va yig‘imlar tushumi haqida ma’lumotlar statistikasini ishlab chiqilgan maxsus algoritmlar asosida olib borish va tegishli organlarga uzatish, tushumlar dinamikasini tahlil qilish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tahliliy ma’lumotlarni berish, tahliliy ma’lumotlar asosida hisobotlar tayyorlash masalalarini yechishni ta’minlashdan iborat.

Soliq xizmati organlarida axborot tizimlari va texnologiyalarini joriy etishning maqsad va vazifalari soliq xizmati organlari bajaradigan funksiyalar, vazifalar, bir xildagi operatsiyalarni yangi dasturlar bilan imkoni boricha kengroq qamrab olishni ta’minlashdir, zero bu dasturlar soliq ma’lumotlariga ishlov berish jarayonini jadallashtirish, soliq inspektorlari ishining samaradorligini oshirish, ularning ishidagi bir tusdagi hisob-kitob va oxiri yo‘q yozuvlar bilan ishlash yukini kompyuter statistikasining zamonaviy vositalaridan foydalangan holda ijodiy tahlil qilish sohasiga chiqish imkonini beradi.
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yilning 10-iyul kuni “Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi qarorni qabul qildi. Farmonida ham soliq tizimida Soliq tizimini yanada takomillashtirish, iqtisodiyotda xufiyona aylanmani qisqartirish va O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo‘nalishlarini amalga oshirish maqsadida:

- Davlat organlari va tashkilotlari o‘rtasida axborot almashish mexanizmlarining, elektron soliq ma’muriyatchiligi hamda soliq nazoratini amalga oshirish shakl va uslublarining takomillashmaganligi.
- Soliq nazoratining shakl va mexanizmlarini, shu jumladan soliq solish obyektlari hamda soliq to‘lovchilarni yanada to‘liq qamrab olish va hisobini ta’minlaydigan zamonaviy raamli texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga takomillashtirish, transfer narxlarni shakllantirish bilan bog‘liq operatsiyalarga soliq solish tartibini joriy etish;
- Ma’lumotlar bazalari soliq organlarining yagona integratsiyalashtirilgan axborot- resurs bazasiga integratsiya qilinadigan davlat organlari va tashkilotlarining ro‘yxatini tasdiqlash.

Soliq xizmati organlarida joriy etilgan axborot tizimlari va texnologiyalarining tuzilishi va tarkibi hamda unga yuklatilgan vazifalar soliq tizimida boshqaruvni avtomatlashtirish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga u takomillashib, yangilanib borish xususiyatiga ega.

Soliq xizmati organlarida soliq ob'ektlari va ularning tushumlari hamda soliq ishini tashkil etishning avtomatlashtirilgan (axborot texnologiyalarini qo'llash) shakllarini yaratish va realizatsiya qilishdan unumli foydalaniladi. Soliq xizmati organlarida ish jarayonlarini, shuningdek, soliq ob'ektlari, tushumlari va soliq to'lovchilarning holati va harakati to'g'risidagi ma'lumotlarning yagona axborot bazasini yaratish va unga zamonaviy axborot texnologiyalarni qo'llash ishlari tashkil etiladi. O'zbekiston soliq tizimida bu borada 30 dan ortiq maxsus dasturiy mahsullardan foydalaniladi [1].

Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini kompyuterlashtirish va axborotlashtirish, malakali xodimlarni tayyorlash, kompyuter jihozlari, dasturiy mahsullar bilan ta`minlash hamda zamon talabidan kelib chiqib, soliq idoralarida jamlangan hisobotlarni elektron ko`rinishda quyi soliq xizmati organlaridan Davlat soliq qo`mitasiga uzatish, Davlat soliq qo`mitasi tomonidan beriladigan operativ topshiriqlarni davlat soliq boshqarmalariga va davlat soliq inspeksiyalariga to`g`ridan – to`g`ri uzatish masalalari, shu bilan birga soliq to`lovchi yuridik va jismoniy shaxslarni ro`yxatga olish, ularni davlat budjeti oldidagi majburiyatlarining bajarilishi haqidagi ma`lumotlarni yagona soliq to`lovchilar bazasida saqlash va boshqa masalalar dolzarb masalaga aylandi [3].

Soliq tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashda bir qancha muammolar yuzaga keladi. O'sha muammolardan birni axborot xavsizligini ta'minlash hisoblanadi. Davlatning axborot xavfsizligini ta`minlash muammosi milliy xavfsizlikni ta`minlashning asosiy va ajralmas qismi bo`lib, axborot himoyasi esa davlatning birlamchi masalalariga aylanmoqda. Axborotni himoyalashning turli usullari mavjud bo`lib, elektron hujjat aylanishi tizimiga o`tilayotgan bugungi kunda elektron raqamli imzo asosida hujjatlar aslligini tasdiqlash va ularni himoya qilish iqtisodiy axborot almashinuvida eng qulay usullardan biri hisoblanadi.

Soliq tizimida raqamli texnologıyalarıdan foydalanıshnıng asosıy maqsadları quyıdagılardan ıborat

1. Soliq tushumlari bo'yicha ma'lumotlarni olish.
2. Ish samaradorligini oshirish.
3. Qog'ozdagi ish oqimining hajmini kamaytirish.
4. Soliq tekshiruvlarini ma'lumotlar bilan ta'minlash.
5. Soliq to'lovchilar to'g'risidagi ma'lumotlarning ishonchliligini oshirish.
6. Soliq qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish.

Boshqa har qanday avtomatlashtirilgan tizimlarda bo'lgani kabi, Soliq tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanishga ham bir qator talablar qo'yiladi, birinchi navbatda, tegishli funksiyalarni samarali bajarish bilan bog'liq. Ishlab chiqilgan soliq axborot tizimi nafaqat soliq organlari ishlarini osonlashtirishga imkon beradi, balki uning barcha faoliyat elementlarini ham tartibga soladi. Tizim alohida elementlarni va butun tizimni boshqaradi.

Hozirgi kunda elektron deklaratsiyalar ham yaratililmoqda. Endi soliq to'lovchilarga soliq deklaratsiyasini elektron shaklda topshirish imkoniyati mavjud va bu, shubhasiz, ularni soliqlarni yig'ish jarayonini osonlashtiradi. Bu usldan foydalanish ancha afzallikka ega bo'lmoqda chunki soliq to'lovchilar endi soliq idoralariga tashrif buyurishi shart emas. Shuningdek, o'z navbatida, soliq inspektsiyasi kiruvchi ma'lumotlarni qo'lda qayta ishlash bilan shug'ullanmaydi, chunki soliq tizmida axborot texnologiyalaridan foydalanib avtomatlashtirilgan axborot tizimini modernizatsiya qilish imkoniyati mavjud. Ma'lumot elektron shaklda qabul qilinadi va avtomatik hisoblash darhol amalga oshiriladi.

Davlat solıq xızmatı organlarıda zamonavıy axborot texnologıyalarıdan foydalanıshnıng ıjobıy tomonları quyıdagılardan iborat

1. Vaqtni tejaydi.
2. Kiritilgan ma'lumotlarning to'g'riligini tasdiqlay oladi.
3. Amalga oshirilgan operatsiya haqida ma'lumot beruvchi ko'chirma olish imkoniyati mavjud.
4. Soliq xizmatiga ma'lumotlarni yetkazib berish haqida xabar beradi,
5. Soliq undirishda aniqlik bo'ladi.
6. Davlat xodimlarining ishlash jarayonida shaffoflik bo'ladi.

Davlat soliq xizmati organlarida zamonaviy raqamli texnologiyalaridan foydalanishning bir qancha bosqichlarda ko'rib chiqishimiz mumkin va u quyidagi vazifalarni bajaradi:

Soliq bazasini aniqlash. Korxonalar va jismoniy shaxslar tomonidan soliqqa rioya etilishining aniq tasavvurini aniqlash har qanday hokimiyat uchun katta muammo tug'diradi. Uchinchi tomon ma'lumotlaridan foydalanish va soliq to'lovchilarni ro'yxatga olishni raqamlashtirish orqali axborot texnologiyalari soliq solinadigan jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek, ularning faoliyati va aktivlari to'g'risidagi to'liq ma'lumotlar bazalari orqali soliq solinadigan bazani aniqlash imkoniyatlarini yaxshilashi mumkin. Xuddi shunday, elektron fiskal qurilmalar yoki raqamli to'lovlar orqali tranzaktsiyalarni avtomatik tarzda yozib olish orqali axborot texnologiyalari soliqlarni yanada shaffofroq aniqlashga yordam beradi.

Muvofiqlikni monitoring qilish. Zamonaviy ma'lumotlarni tahlil qilish vositalari soliq organlariga o'z-o'zidan hisobot berilgan soliq majburiyatlarini boshqa ma'lumotlar manbalariga nisbatan avtomatlashtirilgan o'zaro tekshirish orqali nazorat qilish va bajarilishini nazorat qilishda yordam beradi. Bundan tashqari, bunday uchinchi tomon ma'lumotlarini tahlil qilish riskga asoslangan auditni qo'llab-quvvatlashi mumkin, bu esa audit jarayonining shaffofligi va samaradorligini oshirishi mumkin.

Muvofiqlikni osonlashtirish. Elektron hujjat topshirish va elektron to'lov kabi texnologiyalar soliq to'lovchilar bilan aloqani optimallashtirish hamda navbatda turish va ma'lumotlarning xatoga yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan qo'lda kiritilishini bartaraf etish orqali soliq to'lovchi tajribasini yaxshilashi va muvofiqlik xarajatlarini kamaytirishi mumkin. Jismoniy hamda yuridik shaxs va soliq to'lovchi o'rtasidagi axborot texnologiyalariga asoslangan soliq xizmatlaridagi o'zaro munosabatlar soliq to'lovchilarni korrupsiyadan himoya qiladi.

Xulosa va taklıflar

Soliq xizmati organlarida zamonaviy raqamli texnologiyalaridan foydalanishda bir qancha to'siqlar mavjud bo'lganda, ya'ni agar elektr quvvati va barqaror internet aloqasi kabi qattiq infratuzilma yo‘q bo‘lsa yoki axborot texnologiyalari eng yuqori vaqtlarda to'siqqa uchrab qolsa yoki ishdan chiqsa yoki faqat vaqti-vaqti bilan ishlasa, bu holda soliq organlari tomonidan internetdan foydalanish imkoniyati cheklangan soliq to‘lovchilarga oddiy telefonlar yordamida oflayn deklaratsiya va to‘lovlarni hal qilish kabi murakkabroq texnologiyalardan foydalanishni taklif qilish orqali soliq orgalari xizmatlaridan unumli foydalanish

Yangi raqamli texnologiyalarning samaradorligi asosiy rahbarlar tomonidan kuchli nazorat bo'lmasa va uzoq muddatli milliy strategiya bo'lmasa, sezilarli darajada to'sqinlik qilinishi mumkin.

Soliq to'lovchilar ma'lumotlarini sir saqlash ham muhim ahamiyatga ega. Soliq to'lovchilar va davlat organlari o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi ko'pincha maxfiylik va maxfiylik muammolari tufayli tizimli ravishda amalga oshirilishi kerak. Davlat organlari soliq to'lovchilarni aniqlash va ma'lumotlarni o'zaro tekshirish uchun bir nechta davlat muassasalari va banklardan foydalanishlari mumkin bo'lgan markaziy avtomatlashtirilgan platformani o'rnatishlari mumkin. Axborot texnologiyalari rivojlanib borar ekan, maxfiylik va maxfiylikni saqlash hamda fuqarolarni ma'lumotlari tarqalib ketishidan himoya qilish uchun kiberxavfsizlik bo‘yicha me'yoriy-huquqiy bazalar yangilanishi kerak.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yilning 10- iyul Solıq ma'murıyatchılıgını takomıllashtırısh bo‘yıcha qo‘shımcha chora-tadbırlar to‘g‘rısıda PQ-4389-son Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq ma‘muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 18 iyuldagi PF-5116-son Farmoni
3. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.
4. "Chakana savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida nazorat-kassa texnikasidan foydalanishni takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" – PQ-5252- son Qarori, 04.10.2021 y.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrdagi "O‘zbekiston Respublikasining "2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-73-son qarori
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni savaraliamalga oshirish tadbirlari to‘g‘risida"gi 2020 yil 6 oktyabrdagi PF- 6079 sonli Farmoni
7. Г.И.Абаева "Организация интегрированной информационной налоговой системы". – М: Костанай, 2017. S – 215
8. Jo'rayev A.S., Berdiyeva U.A. "Soliq ma'murchiligi" o'quv q`ollanma" - M: Toshkent–2019. S – 201

9. Adewoye, J.O., &Olaoye, C.O. (2021). Usage of information technology to enhance professional productivity among accountants in Ekiti State. International Journal of Accounting and Financial Management Research (IJAFMR), 4(2), 7-18.
10. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari: www.soliq.uz.